

## Qurilish ishlari

Yanvar-fevral 2018 yil


### RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **227,5 mlrd. soʻm**
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi - **8,8 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar - **53,8 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektoring ulushi - **37,4 foiz**

Joriy yilning yanvar-fevral oyi boʻyicha Surxondaryo viloyatida 227,5 mlrd. soʼmlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, oʼsish surʼati oʼtgan yilning shu davriga nisbatan 102,5 foizni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-fevraliga nisbatan 0,9 foiz punktga koʼpaydi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 20,0 mlrd.soʼmni yoki 152,9 foizni tashkil qilib, oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 32,5 foiz punktga oshdi.

### Qurilish ishlari



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)




Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 53,8% ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 %ni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurishi, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.




## Mulkchilik shakllari

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonida 221,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,6 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 foiz punktiga ko'paydi.



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish bo'limi

Sh.Gaipov  
(0371) 230-85-81